



HUDUDLAR TABIIY RESURS SALOHİYATINI BAHOLASH VA ULARNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Sadullayeva Mexrinov Djamshedovna

e-mail: mexrinovs@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarning tabiiy resurs salohiyatini baholashning nazariy asoslari, baholash mezonlari hamda ularning hududlar rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish borasidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy jihatlari, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari hududlarning tabiiy resurs salohiyatini samarali boshqarish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, salohiyat, hududiy rivojlanish, iqtisodiy baholash, ekologiya, barqarorlik.

ОЦЕНКА ПРИРОДНО-РЕСУРСНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ И ЕГО РОЛЬ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы и критерии оценки природно-ресурсного потенциала регионов, а также его роль в сокращении различий в уровне их социально-экономического развития. Кроме того, рассматриваются правовые аспекты использования природных ресурсов, вопросы сохранения экологического баланса и обеспечения устойчивого развития. Результаты исследования направлены на обеспечение устойчивости социально-экономического развития посредством эффективного управления природно-ресурсным потенциалом регионов.



Ключевые слова: природные ресурсы, потенциал, региональное развитие, экономическая оценка, экология, устойчивость

ASSESSMENT OF REGIONAL NATURAL RESOURCE POTENTIAL AND ITS ROLE IN REGIONAL DEVELOPMENT

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and evaluation criteria of assessing the natural resource potential of regions, as well as its role in reducing regional development disparities. In addition, the study highlights the legal aspects of natural resource utilization, the maintenance of ecological balance, and the promotion of sustainable development. The research results are aimed at ensuring the sustainability of socio-economic development through the effective management of regional natural resource potential.

Key words: natural resources, potential, regional development, economic assessment, ecology, sustainability.

Kirish

Bizga ma'lumki, bugungi kunda Yer yuzidagi barcha davlatlarda Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tabiiy resurslar asosiy omillardan biri bo'lib kelmoqda. Har bir hududning tabiiy resurs salohiyati – bu uning iqtisodiy imkoniyatlarini belgilovchi dolzarb xususiyatlaridan biridir. Tabiiy resurslar tarkibi, miqdori, sifati va ularni qayta ishlash darajasi hududning iqtisodiyotdagi rivojlanish qirralarini ochib beradi. Shu sababli hozirda rivojlangan Va endi rivojlanayotgan davlatlarning asosiy etibori shu hududlarning tabiiy resurs salohiyatini oshirish va rag'batlantirish masalasiga qaratilgan.

Shu borada yurtimizda ham bir necha chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi" hisoblanadi. Ushbu strategiyaning



maqsad Va vazifalari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlash va hududlar rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishdan iborat.

Asosiy qism

Dastlab tabiiy resurs tushunchasi va tabiiy resurs salohiyati o'zi nima degan terminga to'xtaladigan bo'lsak, tabiiy resurs- jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalaridir. Tabiiy resurs salohiyati – bu hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklar, yer, suv, foydali qazilmalar, iqlim sharoiti va biologik xilma-xillik imkoniyatlarining majmuasidir.

Hududning tabiiy resurs salohiyatini quyidagi 1-jadvaldagi omillar orqali aniqlab olishimiz mumkin:

RESURLAR	OMILLAR
<i>Yer resurlari</i>	qishloq xo'jaligi yerlari, unumdorlik darajasi
<i>Suv resurslari</i>	yillik oqim hajmi, foydalanish darajasi
<i>Energiya resurslari</i>	quyosh, shamol, biomassa
<i>Biologic resurslar</i>	o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi
<i>Foydali qazilmalar</i>	zaxira va qazib olish hajmi

Tabiat resurslariga quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi



kiradi. Tabiat resurslari **tugaydigan** (ko'pgina foydali qazilmalar), **tugamaydigan** (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va **tiklanadigan** (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklarga bo'linadi.¹

Endi, asosiy e'tiborimizni tabiiy resurs salohiyatini baholash tartibi va mezonlariga qaratigan bo'lsak, Resursni baholashda asosan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari yuritiladi hamda quyidagi 2-jadvalda ko'rsatilgan usullar keng qo'llaniladi.

2-jadval. Baholashda qo'llaniladigan usullar ro'yxati.

USUL	VAZIFASI
<i>Ekonometrik usul</i>	<i>Resursdan olainadiga iqtisodiy foydani aniqlash</i>
<i>Kartografik baholash usuli</i>	<i>Resursni hududiy taqsimlanishini xaritada aks ettirish</i>
<i>Integral ko'rsatkich usuli</i>	<i>Resurslarning umumiy salohiyatini solishtirish</i>
<i>Ekologik baholash usuli</i>	<i>Resurslardan foydalanishning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash</i>

Ma'lumki, yurtimizdagi barcha viloyatlar o'zining tabiiy resurs salohiyatiga ega hisoblanadi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Farg'ona vodiysi suv va unumdor yer resurslariga boy viloyatlardan biri, shu sababli yerlaridan olinadigan ekin va mahsulotlarning sifati oliy navlidir. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa aksincha suv resurslari cheklangan hamda yer maydonlari ko'p. Navoiy viloyatida juda ko'p foydali qazilmalar mavjud, bulardan oltin, uran, fosforit Navoiy sanoat

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)



tarmoqini rivojlanishiga sababchi bo'lgan. Surxondaryo ham o'zining tabiiy gaz van eft zaxiralarining ko'pligi bilan energetika sohasini boyitgan.

Biroq, hozirgi kunda ayrim hududlarda tabiiy resurslardan notog'ri foydalanish oqibatida ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Bunga Orol fojiasi, cho'llanish yoki hududlardagi suv tanqisligini misol qilib aytishimiz mumkin. Shu sababli yurtimizda tabiiy resurslardan foydalanish oqilona tartiblarini belgilovchi bir necha normative-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Bulardan asosiy me'yoriy hujjatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilangan.² O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratligi maqsad qilib qo'yilgan³

Hududlarning tabiiy resurs salohiyatini oshirishga qaratilgan, umudavlat ahamiyatiga molek bo'lgan iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradigan takliflar haqida to'xtaladigan bo'lsak, **Birinchidan**, har bir viloyat bo'yicha resurslardan foydalanishning ekologik bahosini joriy etish lozim. **Ikkinchidan**, GIS – Raqamli geografik axborot tizimlari asosida resurs monitoringini yo'lga qo'yish kerak. **Uchinchidan**, Energiya ta'mnotida resurs tejamkor texnologiyalarini majburiy standart sifatida joriy etish darkor. **To'rtinchidan**, har bir hududda kompensatsion fondlarni joriy etish va bu orqali atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish.

² <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ <https://lex.uz/acts/-107115>



Resurs salohiyatini oshirishga qaratilgan ushbu takliflar nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanish, balki iqtisodiyotda rivojlanishning muvozanatlanishuviga, shuningdek ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Tabiiy resurslarning mavjudligi, sifati va ulardan foydalanish darajasi hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini belgilab beradi hamda ularning raqobatbardoshligini ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy resurslardan oqilona va ilmiy asosda foydalanish, ularni qayta tiklash hamda ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish zarur. Hududlarning resurs salohiyatini baholashda zamonaviy baholash mezonlari, raqamli texnologiyalar va geografik axborot tizimlaridan keng foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 30.04.2025 yildagi nashr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"
3. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatnimuhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni - <https://lex.uz/acts/-107115>
4. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi. Toshkent: 2025 – www.stat.uz
5. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish (o'quv qo'llanma). T., TIQXMMI. 393 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)



7. Asadullayev A.N. The role of physical education and sports professionals in the organization of a healthy lifestyle in society. Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology, 3rd special issue. Tashkent-2020. 31-36.
13. Asadullayev A.N., Ochilova N.R., Jabborova O.G. Healthy lifestyle (Healthy lifestyle) *Academicia* an international multidisciplinary research journal (ISSN:2249-7137, январь 2021, 1835-1841).

8. www.lex.uz